



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHILOTIDA OTA-ONALAR BILAN SAMARALI
HAMKORLIK MUOMMOLARI VA TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI ILMIY-TAJRIBA
SINOV NATIJALARI**

Xoliqova Yoqutxon Mirzakarim qizi
QDU 1-bosqich magistrant

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasidagi samarali hamkorlikning dolzarb muammolari hamda uning ta'lim sifatiga ta'siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida ota-onalar bilan hamkorlikning mavjud holati o'rganilib, asosiy muammolar aniqlangan hamda innovatsion yondashuvlar asosida ota-onalar bilan ishlashning samarali shakllarini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv metodlar asosida seminar-treninglar tashkil etish hamda "Ota-onalar klubi" faoliyatini yo'lga qo'yish orqali ota-onalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish yo'llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvlarning samaradorligini ko'rsatib, ota-onalar ishtirokini kuchaytirish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ota-onalar bilan hamkorlik, innovatsion yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv metodlar, ota-onalar klubi, ta'lim sifati, pedagogik hamkorlik, o'quv motivatsiyasi, tajriba-sinov.

Annotation. This article examines the actual issues of effective cooperation between preschool educational institutions and parents, as well as its impact on the quality of education, from both theoretical and practical perspectives. The study analyzes the current state of parent-institution collaboration, identifies key problems, and proposes effective forms of working with parents based on innovative approaches.

In particular, the research focuses on the use of information and communication technologies, the organization of seminar-trainings based on interactive methods, and the establishment of a "Parents' Club." The results of the experimental study demonstrate that these approaches contribute to increasing parental involvement in the educational process and improving the overall quality of education.

Keywords: preschool education, parent-teacher cooperation, innovative approaches, information and communication technologies, interactive methods, parents' club, quality of education, pedagogical collaboration, learning motivation, experimental research.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически и практически проанализированы актуальные проблемы эффективного сотрудничества между дошкольной образовательной организацией и родителями, а также его влияние на качество образования. В процессе исследования было изучено текущее состояние взаимодействия



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



с родителями, выявлены основные проблемы и разработаны предложения по внедрению эффективных форм работы с родителями на основе инновационных подходов.

В частности, освещены пути повышения активности родителей в образовательном процессе посредством использования информационно-коммуникационных технологий, организации семинаров-тренингов на основе интерактивных методов, а также внедрения деятельности «Клуба родителей». Результаты исследования подтверждают эффективность данных подходов, способствуют усилению участия родителей и повышению качества образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, сотрудничество с родителями, инновационные подходы, информационно-коммуникационные технологии, интерактивные методы, родительский клуб, качество образования, педагогическое сотрудничество, учебная мотивация, опытно-экспериментальная работа.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi va ota-onalar o'rtasidagi samarali muloqot bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Chunki aynan shu hamkorlik orqali bola nafaqat ta'lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham o'z bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining uzviy hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Bola MTTda olgan bilimlarini oilaviy muhitda qo'llashi, ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va rag'batlantirilishi uning ta'limga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Shu bilan birga, ota-onalarning farzand tarbiyasiga befarq emasligi, ularning kelajagi uchun mas'uliyat hissi yuqoriligi hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Biroq zamonaviy sharoitda ota-onalar va ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga to'sqinlik qiluvchi qator omillar mavjud. Jumladan, ota-onalarning ish bilan bandligi, pedagogik bilimlarning yetishmasligi, kommunikativ muammolar hamda hamkorlikning aniq tizimi shakllanmaganligi ushbu jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Bu esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir etib, bolalarning har tomonlama rivojlanishida ayrim kamchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Hamkorlik asosan an'anaviy shakllar – yig'ilishlar va umumiy suhbatlar bilan cheklanib qolmoqda. Zamonaviy sharoitda esa bu yetarli emas. MTTda aniq muommoni o'rganish uchun tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tadqiqot metodologiyasi Mazkur tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

- So'rovnoma – ota-onalarning fikrini aniqlash;
- Kuzatish – bolalar va ota-onalar faolligini baholash;
- Suhbat – muammolarni chuqur tahlil qilish;
- Tajriba-sinov – innovatsion yondashuvlar samaradorligini aniqlash.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Tadqiqot 30 nafar tarbiyalanuvchi va ularning ota-onalari ishtirokida o'tkazildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi muammolar aniqlangan:

- ota-onalarda vaqt yetishmasligi;
- pedagogik bilim va ko'nikmalarning yetarli emasligi;
- MTT va oila o'rtasida muntazam axborot almashinuvi kamligi;
- ota-onalarning ta'lim jarayoniga nisbatan befarq yoki passiv munosabati.

Ushbu muammolar avvalo ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini samarali tashkil etilmasligiga, ta'lim sifati pasayishiga, bolalarning rivojlanishida uzilishlar yuzaga kelishiga olib keladi. Shu sababli hamkorlik ishlarida an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Innovatsion yondashuvlar va amaliy ishlar

Tadqiqot doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida bir qator innovatsion yondashuvlar va amaliy ishlar amalga oshirildi:

Birinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'lga qo'yildi. Xususan, Telegram ijtimoiy tarmog'ida maxsus guruhlar tashkil etilib, ota-onalar bilan doimiy va tezkor muloqot o'rnatildi. Ushbu platforma orqali maslahatlar berish, e'lonlar joylashtirish hamda pedagogik tavsiyalar yetkazish imkoniyati yaratildi.

Ikkinchidan, interaktiv seminar-treninglar tashkil etildi. Mazkur treninglarda ota-onalarga zamonaviy pedagogik yondashuvlar, bolalar psixologiyasi, tarbiya metodlari hamda oilaviy muhitning ta'limga ta'siri kabi dolzarb mavzular yoritildi. Seminarlar interaktiv shaklda o'tkazilib, ota-onalarning faol ishtiroki ta'minlandi. Bundan tashqari ota-onalar va bolalar birgalikdagi turli xil o'yinlar olib borildi.

Uchinchidan, "Ota-onalar klubi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu klub ota-onalar uchun o'zaro tajriba almashish, muammolarni muhokama qilish va ularni birgalikda hal etish maydoniga aylandi. Klub doirasida turli uchrashuvlar, davra suhbatlari va amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi.

To'rtinchidan, individual yondashuv tamoyili asosida har bir ota-ona bilan alohida ishlash tizimi joriy etildi. Bu orqali har bir oilaning o'ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari va muammolari inobatga olinib, mos tavsiyalar berildi.

Tajriba-sinov natijalari

Tajriba-sinov ishlari yakunida bir qator ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Ular ta'lim jarayonida faol ishtirok eta boshladilar hamda farzandlarining rivojlanishiga nisbatan mas'uliyatli yondashuv kuchaydi.

Shuningdek, bolalarning o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasi ortdi, ular faoliyat jaayonlarida faolroq ishtirok eta boshladilar. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Eng muhim natijalardan biri sifatida ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasida ishonchli, ochiq va samarali hamkorlik muhitining shakllanganligini ta'kidlash mumkin.

Statistik tahlillar natijasida ota-onalar faolligi o'rtacha 15–25 foizga oshgani aniqlandi. Bu ko'rsatkich tadqiqot doirasida qo'llanilgan innovatsion yondashuvlarning samaradorligini tasdiqladi.

Muhokama

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy yondashuvlar hozirgi zamonaviy ta'lim talablarini to'liq darajada qondira olmaydi. Ayniqsa, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishda faqatgina an'anaviy yig'ilishlar va og'zaki muloqot bilan cheklanib qolish kutilgan samarani bermaydi.

Tadqiqot davomida qo'llanilgan innovatsion yondashuvlar esa hamkorlik jarayonini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ota-onalar bilan tezkor va uzluksiz aloqani ta'minladi, interaktiv metodlar esa ularning faolligini oshirishga yordam berdi.

Shuningdek, "Ota-onalar klubi" kabi tashkiliy shakllar ota-onalarning o'zaro tajriba almashishiga, muammolarni birgalikda hal etishiga hamda ta'lim jarayoniga ongli ravishda jalb etilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu esa hamkorlikning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi.

Xulosa

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasidagi samarali hamkorlik bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali mavjud muammolarni bartaraf etish, hamkorlik samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash mumkin. Ota-onalar va ularning farzandlari bilan qayta so'rovnoma olinganda bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishi qisqa muddat ichida 15% ko'tarilganligi va ota-onalar farzandlariga ko'proq vaqt ajratib ularni qo'llab-quvvatlayotganligi aniqlandi.

Shu bilan birga, olib borilgan tajriba-sinov ishlari ota-onalar faolligining ortishi, bolalarning o'quv motivatsiyasining kuchayishi hamda tarbiyachi va ota-onalar o'rtasida mustahkam ishonchli munosabatlarning shakllanganini tasdiqladi.

Kelgusida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- ota-onalarning pedagogik madaniyatini muntazam ravishda oshirib borish;
- hamkorlikning zamonaviy va innovatsion shakllarini keng joriy etish;
- maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasida uzluksiz, tizimli aloqa mexanizmini yaratish;
- individual yondashuv asosida har bir oila bilan samarali ishlashni rivojlantirish.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.Abdullayeva. (2022). Maktabgacha ta'limda ota-onalar hamkorligi: muammolar va yechimlar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
2. Sh.Karimova. (2023). Bolalar rivojlanishida oila va bog' hamkorligi. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
3. D.Nig'monova, (2023). Madaniy farqlar va ta'lim jarayoni. Toshkent: Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti.
4. R.Qodirov. (2021). Pedagogik treninglar va ota-onalar ishtiroki. Namangan: Namangan Davlat Universiteti nashriyoti.